



O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA PEDAGOGIK TADBIRLARDAN KENG FOYDALANISHNING IJOBIY AHAMIYATI

Jakbarov Adham Hoshimjonovich

Namangan viloyati Chortoq tumani 18-maktab psixologi

Annotatsiya: Muallif ushbu maqola orqali pedagogik tadbirlarning o'quvchilarni xar tomonlama tarbiyalashdagi ahamiyati, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda pedagogik tadbirlardan keng foydalanish mexanizmlari va ularning ma'no jixatdan sifati xaqida so'z yuritadi. Siz bu maqolani o'qish davomida Ma'naviy axloqiy tarbiyalashda pedagogik tadbirlarning o'rni va ahamiyati haqida bir qator ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, qadriyat, ma'naviy-axloqiy, pedagogika, ta'lim, tadbirlar, tarbiya, bilim. Malaka, tajriba.

KIRISH

Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining harakatga keltiruvchi kuchi, O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo'lgan insonning ma'naviyatini, axloqini va kasbiy salohiyatini yuksaltirishda tajriba va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Demak, bugungi kun mutaxassisi o'z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda ma'naviy axloqiy o'zlikni anglash muammosi davr talabidir. Birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov: "...yuksak



maqsadlarga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri bu – hech shubhasiz, mamlakatimiz aholisining ongu-tafakkuri va dunyoqarashida yuz berayotgan o'zgarishlar, uning hayotga, mehnatga bo'lgan munosabati, tobora o'sib borayotgan siyosiy va huquqiy madaniyati, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi" – deb ta'kidlaydi. Xalq so'zi 2012 y/8 dek. Ushbu sio'zlar ma'nosidan xam ko'rinib turibdiki: insonning ma'naviy, axloqiy tarbiyasi juda katta kuch va tasirga egadir. Maktab ta'limida pedagogik tadbirlar aloxida o'rin kasb etadi. O'quvchilarning ong-u shuurini kuchaytiradi, o'ziga ishonchini oshirib, atrofga munosabatini o'zgartiradi. Jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning o'rni beqiyos. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va uning xulq-atvorini bosqichma-bosqich malakaga aylantirish va asosiy kompetensiyalarni shakllantirish zarur. Davlat ta'lim standartlari zamonaviy ta'lim modeli asosida qayta ko'rib chiqildi. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari o'quvchilarning tayanch va fan yo'nalishlari bo'yicha umumiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga ma'naviy, marifiy tadbirlarni maktab hayotidagi ahamyatini xam ijobiy tomonga o'zgartirib boradi. Ma'naviyat tushunchasi o'zining keng ma'noli o'zagi bilan ajralib tursa, ma'rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi. Shunga muvofiq xar bir shaxsda xar ikkala axloq yetarli bo'lsa keyingina u komil inson darajasiga yetishi mumkin.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ma'orif soxasida faoliyat yuritayotgan xar bir pedagog borki u o'zining tashkilotchiligi, xarakatchanligi va ijodkorligi bilan yosh avlodni axloqiy, ma'naviy tarbiyalashda o'z o'rniga ega bo'lmog'i lozim. Inson tug'ilib, rivojlanishi davomida o'zida turli xildagi husussiyatlarni namoyon qilib boradi. Ayniqsa bolalarda o'yin faoliyati orqali ularning muqim bir kasbga bo'lgan qiziqishi xam namoyon bo'lishni boshlaydi. O'yin davomida tadbirlar uyshtiriladi. Kimdur bu tadbirda



suxandon bo'lsa, kimdur raqsga tushgadi. Kimdur esa sher aytadi. Bundan natija bo'lajak o'qituvchi, bo'lajak san'atkor, bo'lajak shifokorlarni shu oddiy o'yin faoliyati orqali xam ko'rib olish mumkin. Maktab hayotida tashkil etiladigan ma'naviy marifiy tadbirlar o'quvchilarda erkin fikrlashdagi ko'nikmalarni shakllantiradi. Atrofdagi do'stlari bilan munozaralarda raqobat tushunchasini anglab yetishiga undaydi, o'zini namoyon etish tajribasini baxsh etadi. Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat . buning uchun esa albatta yosh avlodning ma'naviyatini, marifatini yuksaltirmoq lozim. Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. Maktab hayotida kichik sinflardan boshlab pedagogic tadbirlarning o'tkazilishi, uning rejaga muvofiq tashkillanishi xam aloxida ahamiyat kasb etadi. Shundagina shaxs o'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs bo'lib yetishadi. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir. Inson tarbiyasi , uning talim olishi borasida bir qator olimlar doimiy izlanishlar olib borilgan. Masalan: buyuk Sharq faylasuflaridan biri Al Farobiy ta'lim tarbiya borasida shunday qimmatli fikrlarni aytib o'tgan. “Tarbiyadan avval talim berish bu axmoqning qo'lga qilich tutkazish bilan barobardir....” Shunday ekan qanday qilib bo'lmasin biz kelajak egalari bo'lmish yosh avlodga ta'lim tarbiya masalasida jiddiy yondoshmog'imiz lozim.

TADQIQOT NATIJALARI

Maktab ta'limida pedagogik tadbirlarni tashkil etishdan oldin u tadbirning pedagogik asosi, tasir mexanizmi, uning murakkabligi va tabiiyligi xaqida ko'p bosh qotirish lozim. Hozirgi zamon o'quvchilari bir xillikni xoxlashmaydi. Ular



doim o'zgarish, yangilanish tarafdorlaridir. Shuning uchun xam ular ongiga doimo yangicha tartibdagi pedagogik tadbirlar bilan tasir etish lozim sanaladi. Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunchaga ega bo'lish nazarda tutiladi. Pedagogik tadbirlar avvalo o'quvchining yoshiga mos, uning tarbiyaviy ehtiyojlariga asosan tuzilishi lozim. Shundagina u o'z effektini beradi. Natijada bolalar ongida tadbirlarga nisbatan to'g'ri tasavvur shakllanadi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Shundan so'ng ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtai nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi. Inson o'zini rivojlanishi uchun olgan bilm , o'zlashtirgan ko'nikmalaridan foydalanadi.

Shiddat bilan rivojlanib kelayotgan vatanimiz kelajagi albatta yoshlar qo'lidadir. O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy, axloqiy yuksaltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda ushbu pedagogik tadbirlar katta ahamiyatga ega. Yoshlar hozirda texnologik bilimlarni kattalardan ko'ra tez hamda samarali egallashmoqda va aytish mumkinki, kompyuter texnologiyasi savodxonligi bo'yicha kattalardan ustunlik ham qilishadi. Ular ta'lim jarayoni va mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi nazoratida bo'lib, internetdan asosan ilm-fan madaniyat va sportga oid ma'lumotlarni oladi, o'rganadi. Bular hursand bo'ladigan ijobiy holatdir. Shu bilan birga maktab hayotidagi pedagogik tadbirlarning xam uzulib qolmasligini nazorat qilish lozim.

XULOSA



Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish lozimki o'quvchilar ongiga faqat kitob bilan tasir etib bo'lmaydi. Ular uchun turli xildagi ko'rgazmalar, tadbirlar va dadqiqotlar natijasining yaqqol misollario orqali tasir etish lozim. Hozirda internet rivojlangan, yoshlarimiz telefon va kompyuterlarga o'rganib qolayotgan bir davrda pedagogik tadbirlarning mano savbiyasiga, o'tkazilish sifatiga katta e'tibor berish lozim. Chunki bunday hollarda bunday pedagogik tadbirlar insonni faqatgina yaxshi tomonga yo'naltiradi. Natijada bir qator ko'nikmalar shakllanadi. Moslashuvchan, ya'ni tez o'zgaruvchan muhitga yetarli darajada javob berishni o'rganadi.

Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan maqsadlar qo'yishni o'zlashtiradi. Inson ijobiy narsalarni olishga qaratilgan va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolardan qochish bilan emas, balki shu - muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan maqsad bilan boshqarilishini tushunib yetadi.

O'zining maqsadlari haqida o'ylab, bunday kishi qanday qilib muvaffaqiyatsiz bo'lishini emas, balki ularning muvaffaqiyatli yutuqlarini tasavvur qiladi. Masalan, imtihonga tayyorgarlikdan boshlaboq, o'ziga ishongan kishi o'zining muvaffaqiyatli o'tishini tasavvur qiladi va aynan shu maqsadga intiladi va g'alaba qozonadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, O'zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Toshkent, O'zbekiston, 2000.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - Toshkent, O'qituvchi, 1992.
4. Almetov N.Sh. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - Almato', 2001.
5. Podlasiy I P. Pedagogika. V 2 kn. Kn. 1. - Moskva, Vldos, 1999.
6. Pedagogika. Munavvarov A.K.ning umumiy tahriri ostida. - Toshkent,